

SEVARA ASADOVA

MEHRIBONLARIM

Sevara Asadova

# MEHRIBONLARIM

*she'rlar*

Qarshi

«Qashqadaryo ko'zgusi OAV» nashriyoti

2017 yil

UO'K821.512.133-1(081)

KBK84(5O')7

A 82

Asadova, Sevara  
Mehribonlarim. She'rlar (So'zboshi muallifi  
V.Ahmad) Qarshi: «Qashqadaryo ko'zguni OAV»  
nashriyoti, 2017 y. 24bet.

KBK 84(5O')7

ISBN 978-9943-4751-2-0

Ushbu kitob Sevara Asadovaning birinchi she'riy to'plami bo'lib, unda yosh ijodkor ona-Vatanga, ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbatini, atrof-muhit va tabiat mo'jizalarini inson ko'ngliga yo'l topa oladigan qilib sodda tilda ayta olgan.

Kelgusida Sevaraga bundanda jo'shqin va dilga yaqin she'rlar yozishiga ishonch bildiramiz.

ISBN 978-9943-4751-2-0

© Sevara Asadova, 2017 yil.

© "Qashqadaryo ko'zguni OAV" nashriyoti, 2017 yil.



## SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Sevara Asadova Dilshod qizi 2003 yilda Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanida tavallud topgan. U ayni paytda tumandagi 29 - o‘rta ta‘lim maktabning 9 sinf o‘quvchisi. Uning she‘rlari tuman, viloyat va respublika nashrlarida chop etilib kelinmoqda.

Sevara she‘riyatga bolaligidan oshno. U qalamga olayotgan satrlarda Vatanga sadoqatlik, ona madhi, do‘stlik tarannumi bolalarcha beg‘uborlik, sodda va samimiy diltortar tuyg‘ular, orzu-niyatlar o‘z ifodasini topgan. Uning she‘rlarini o‘qir ekansiz beixtiyor bolalikning chegara bilmas sehrli olamiga g‘arq bo‘lasiz. Ijodkor qizimizning orzu havaslari ro‘yobga chiqishini dildan niyat qilasiz. Uning beg‘ubor qalbi bir olam bolalarcha mag‘rurlik va baxtga limmo-lim. Yurt oldidagi burch va vazifalarni ado etishga astoydil bel bog‘laganini uning she‘rlaridan ham his qilish mumkin. Olijanoblik, hayotga muhabbat, ota -onaga mehr, maqsad sari intilish uchqunlari Sevarani yuksaklik sari chorlaydi.

Sevaraning she‘riyatga bugungi havasi kelgusida qalb tug‘yoni bo‘lib baralla yangrashiga ishonchimiz komil. Satrlaridagi sof tuyg‘ular ifodasi, yoshlikning nashidasi ufurib turgan ijod namunalari qalblarda uchqun bo‘lib chaqnashi shubhasiz.

**Vohid Ahmad,  
shoir, tarjimon.**



## SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Sevara Asadova Dilshod qizi 2003 yilda Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanida tavallud topgan. U ayni paytda tumandagi 29 - o‘rta ta‘lim maktabning 9 sinf o‘quvchisi. Uning she‘rlari tuman, viloyat va respublika nashrlarida chop etilib kelinmoqda.

Sevara she‘riyatga bolaligidan oshno. U qalamga olayotgan satrlarda Vatanga sadoqatlik, ona madhi, do‘stlik tarannumi bolalarcha beg‘uborlik, sodda va samimiy diltortar tuyg‘ular, orzu-niyatlar o‘z ifodasini topgan. Uning she‘rlarini o‘qir ekansiz beixtiyor bolalikning chegara bilmas sehrli olamiga g‘arq bo‘lasiz. Ijodkor qizimizning orzu havaslari ro‘yobga chiqishini dildan niyat qilasiz. Uning beg‘ubor qalbi bir olam bolalarcha mag‘rurlik va baxtga limmo-lim. Yurt oldidagi burch va vazifalarni ado etishga astoydil bel bog‘laganini uning she‘rlaridan ham his qilish mumkin. Olijanoblik, hayotga muhabbat, ota -onaga mehr, maqsad sari intilish uchqunlari Sevarani yuksaklik sari chorlaydi.

Sevaraning she‘riyatga bugungi havasi kelgusida qalb tug‘yoni bo‘lib baralla yangrashiga ishonchimiz komil. Satrlaridagi sof tuyg‘ular ifodasi, yoshlikning nashidasi ufurib turgan ijod namunalari qalblarda uchqun bo‘lib chaqnashi shubhasiz.

**Vohid Ahmad,  
shoir, tarjimon.**



## ONAM

Men uchun buyukdir Ona kalomi  
Borlig'im, boyligim, baxtim siz- onam.  
Sizning so'zlaringiz qalbinga malham,  
Turingiz turguncha bu ko'hna olam.

Siz mening suyangan bog'imsiz onam,  
Kechalar allalab beshik tebratgan.  
Siz mening sirdoshim, munisim onam,  
Duogo'yim maktab sari yo'latgan.

Bemor bo'lganimda doim parvona,  
Qizim, deb alqaysiz hamisha onam.  
U mushfiq mehringiz mudom beminnat,  
Bo'lmoqlik istayman sizga xos farzand.





## O'ZBEKISTON

Amir Temur qo'rg'onidur bu makon.  
Shoh Boburning ona yurti qadim Turon.  
Ajdodlarim dong'i ketgan keng olamga,  
Mening go'zal Vatanimsan O'zbekiston!  
Yashil qir-u, adirlari gul chamandir,  
Bog'-rog'i, baland tog'i misli osmon.  
Bobo dehqon, allomalar yurtidir bu—  
Mening go'zal betakrorim O'zbekiston.  
Keksalarin e'zozlagan o'lkadir bu—  
Farzandlarin dildan sevgan ajib diyor!  
Onalarni hurmatlashar chun mo'tabar.  
Mening go'zal diyorimsan O'zbekiston.





## **MAKTAB**

Yoshligimning navbahor fasli,  
Shu ulug' dargohda o'tyapti asli.  
Savodim chiqmoqda shu ilmgohda,  
Ilmu-ma'rifatni olgum yosh chog'da.  
Mehribonlik bilan o'rgatgan ta'lim,  
Qalbidan joy olgan buyuk muallim.  
Bolalikdan orzu qilganman chunon...  
Men ham muallima bo'lgum Xudoyim.  
Barcha fanlar aro qo'ydim mehrimni,  
Boyitib bormog'im kerak zehnimni.  
Shunda men bir kuni ta'lim bergayman,  
Bu ulug' koshona kutmoqda meni.







## **MAKTAB**

Yoshligimning navbahor fasli,  
Shu ulug' dargohda o'tyapti asli.  
Savodim chiqmoqda shu ilmgohda,  
Ilmu-ma'rifatni olgum yosh chog'da.  
Mehribonlik bilan o'rgatgan ta'lim,  
Qalbidan joy olgan buyuk muallim.  
Bolalikdan orzu qilganman chunon...  
Men ham muallima bo'lgum Xudoyim.  
Barcha fanlar aro qo'ydim mehrimni,  
Boyitib bormog'im kerak zehnimni.  
Shunda men bir kuni ta'lim bergayman,  
Bu ulug' koshona kutmoqda meni.





### MEHRIBONLARIM

Men uchun dunyoda ikki nom ulug',  
Biri ota bo'lsa, birisi ona.  
Men uchun qadrdon, men uchun qutlug',  
Suyanchig'im otam-u, suyakli onam.  
Beshta farzanddirmiz, besh xil dunyomiz,  
«Borimu-yo'g'imiz - farzandlarim» deb,  
Tinmaydi tun-u kun charchamaslar hech.  
Buzrukvorim otam-u, volidam onam.  
Mening bor boyligim, baxtimdir ular,  
Biror ish boshlasam qilgaylar duo  
Meni doimo qo'llab turarlar...  
So'nmas quyoshimdir, mangudir ziyo.





## O'ZBEK AYOLI

Nazokatli, iboli,  
Or-nomusli hayoli.  
Sadoqatda vafoli,  
O'zbekimning ayoli.  
Kiygan ko'ylagi atlas,  
O'ziga xo'p yarashar.  
Yurishlari ma'noli  
O'zbekimning ayoli.  
Sochi sumbul, qoshi kamon,  
Sarvqomat adoli.  
Farzandiga mehribon,  
O'zbekimning ayoli.  
Farishtadek siymoli,  
Oilada vafoli.  
Fazilati betakror,  
O'zbekimning ayoli!





### **BOLALIK**

Eng shirin orzular bolalikda jam,  
Umr o'taverar bamisoli sham.  
Bu hayot karvoni o'tmoqda bekam,  
Umrimiz bahori erur bolalik.  
Dunyoda yasharkan, har bitta inson,  
Unga berilgaydir behad mo'l imkon.  
**Lekin, bolalikning shodliklarini,**  
Ortga qaytarolmas hech qandayin jon.





## **BOLALIK**

Eng shirin orzular bolalikda jam,  
Umr o'taverar bamisoli sham.  
Bu hayot karvoni o'tmoqda bekam,  
Umrimiz bahori erur bolalik.  
Dunyoda yasharkan, har bitta inson,  
Unga berilgaydir behad mo'l imkon.  
Lekin, bolalikning shodliklarini,  
Ortga qaytarolmas hech qandayin jon.





## VATANIM

Qayda bor shundayin go'zal hur diyor,  
Bir tomoni chaman oppoq paxtazor  
G'ayrat-shijoatli yoshlari bisyor,  
Shiroq, Boburdayin o'g'lonlaring bor.  
Vatan menga onadek aziz,  
Yayrab o'sar bunda har bir o'g'il-qiz,  
Dunyoda tengsizdir yakka-yagonam,  
Mening ona yurtim tuprog'ing aziz.





### **RAHMAT**

Meni yaratgan ey Tangri Taolo,  
Qo'l-oyog'im butun sog'man, salomat.  
Yashayapman xushnud beg'amman illo,  
Inson qilib yaratding va bo'lgum beshak!

### **QASHQADARYOM**

Ta'rifinga so'zlarim gar kam,  
O'zing mening suygim o'lkam.  
Ham onamsan, mehribon otam,  
Qashqadaryom qadding tut o'ktam!





### SHOIRLAR

She'rsiz yasholmaydi shoirlar ahli,  
Yozaverar shoir tinimsiz yozar.  
Unga yo'qdir sira erta-kech daxli,  
Doim u qo'lida qalam tebratar.  
Shoir umri ko'kdagi yulduz,  
U ko'ngil mulkining sultoni erur  
—Nahot u tuyg'udan bo'lgay mo'suvo?  
Qalbida qolmagay sirli qo'shiqlar.







## ONALAR

G'unchalarga rang berib shabnam,  
Gulzorlar bag'rida uning makoni.  
Bo'y taratib dilga eng yaqin malham.  
Mening uchun gulu-giyoh g'unchalar.  
Bilasizmi, dunyodagi gullar-asli onalar,  
Jannatdek yasharib yursin onalar.  
Sog' bo'ling hamisha munis onalar,  
Siz borsiz, dunyo ham doimo go'zal.





### **BAHOR**

Bugun tabiat o'zgacha,  
Daraxt kurtak ochibdi.  
Yomg'ir yog'di tonggacha,  
Ayoz qayga qochibdi.  
Tog'lar olgandek yorliq,  
Rang-barang gulga to'ldi.  
Juda go'zaldir borliq,  
Osmon ham sirli bo'ldi.  
Bir yomg'ir yog'adi-yu,  
Ariqlar suvga to'lar.  
Bir lahza quyosh chiqib,  
Kamalak jilo qilar.  
Dehqonlar ketmon olib,  
Dala tomon yo'l olar.  
Yangi ko'chat o'tqazib,  
Yoniga payvand solar.  
Tabiat ham o'zgarar,  
Mana shu ayni mahal.  
Bu go'zal bahor fasli,  
Barchaga birdek yoqar.



### USTOZIM

Oftob misoli go'yo  
Taratgan bizga ziyo.  
Ta'zimdami doimo—  
Birinchi muallimim.

### SHOIR

Qishloqdan chiqadi haqiqiy shoir,  
Tabiatdan zavq olib ash'or bitadi.  
Go'zallikka oshno qalbi bilan u—  
Hammani she'riga maftun etadi.





### UMR

Yomg'ir shivirleydi yog'ib, behisob,  
Umrimiz o'tadi bo'lgay sarhisob.  
Kuz ertagin aytar sermazmun kitob,  
Hayot ham g'animat biz uchun shu tob.  
Hikmatni o'zingga yaqin do'st qilgin,  
Har bitta inson teng, sen buni bilgin.  
Sen faqat yaxshining hamrohi bo'lg'in,  
Inchunun, doimo yaxshilik qilgin!





## **NAVRO'Z MUBORAK**

Osmonga qara do'stim,  
Ko'rinmoqda kamalak.  
Guldan-gulga qo'nmoqda,  
Mittigina kapalak.  
Qo'shiqchi qo'shiq aytar,  
Dillarda sirli ertak...  
Doshqozonda qaynaydi,  
Totli shirin sumalak.  
Bolalar tosh terishar,  
Bildirib yaxshi tilak.  
Mehmonnavoz elimga  
Bo'lsin Navro'z muborak!





### TO'KILISH

Kecha kurtak ochib gullagan daraxt,  
Bugun barglarini to'kmoqda bir-bir.  
Umr o'tganini eslatar bu vaqt,  
Yam-yashil o'tloqlar bari sarg'ayur.  
Maktab hovlisida to'kilgan xazon,  
Menga shivirlaydi nimalarnidir.  
Yuragimda yog'ar qandaydir to'zon,  
U barglar qismati urmoqda isyon.





## USTOZLAR

Mehru -muhabbati beqiyos cheksiz,  
Ilmu -tafakkurda misli bir dengiz.  
Bizga ta'lim bergan aziz siymosiz,  
Sog' bo'ling ustozlar barcha -barchangiz!

Shogirdlar kamolin ko'ring doimo,  
Shodlanib, quvonib yuring doimo.  
Yuksak tog'lar misol baland bo'lingiz,  
Sog' bo'ling ustozlar barcha -barchangiz!

Yaxshi o'qing deya qilgaysiz talab,  
Qayg'urasiz mudom baxtimiz o'ylab.  
Yuz yoshni qarshilab yuzdan oshingiz,  
Sog' bo'ling ustozlar barcha -barchangiz!



### **KITOB**

Kitobdir - ilmning koni,  
Yaxshiliklar makoni.  
O'qigin unda bordir,  
Mo'l orzular imkoni.

### **DO'STLIK**

Do'stlikdir qalblarda iligan chechak,  
Do'stlar bo'lar bizga doimo tirgak.  
Ko'payar biz bilan do'st bo'lish istak,  
Agar biz do'stlarni qadrlay bilsak.







### **BAXTLIMAN**

Otam bor, onam bor mening yonimda,  
Yaqinlarim suyanchiq har bir kunimda.  
Vatanim tuprog'i oltindan qimmat —  
Demak, men baxtliman har bir onimda!

### **TABIAT**

Rang-barang bunchalar tabiat,  
Buncha go'zal buncha beg'ubor.  
To'rt fasli bor kelishar takror,  
Yoz, kuz, qish va biz suygan bahor.





### **ORZUMAND KO'NGIL**

Orzularim osmonlarga yetmoqdadir,  
Yuksaklarga intilmoqda yurak shodon.  
Kundan-kunga yangi she'rlar bitmoqdadir,  
Yuragimda jo'sh urmoqda she'riy isyon.

### **SHE'RIYAT**

Shoirning haqiqiy suyanchig'i she'riyat,  
Shoirning haqiqiy tayanchi ham she'riyat.  
Shoir she'riyat bog'ida suzar doimo,  
Beshak uning sirdoshidir—do'sti she'riyat.





## MUNDARIJA

So'zboshi o'rnida.....	3
Onam.....	4
O'zbekiston.....	5
Maktab.....	6
Mehribonlarim.....	7
O'zbek ayoli.....	8
Bolalik.....	9
Vatanim.....	10
Rahmat.....	11
Qashqadaryom.....	11
Shoirlar.....	12
Onalar.....	13
Bahor.....	14
Ustozim.....	15
Shoir.....	15
Umr.....	16
Navro'z muborak.....	17
To'kilish.....	18
Ustozlar.....	19
Kitob.....	20
Do'stlik.....	20
Baxtliman.....	21
Tabiat.....	21
Orzumand ko'ngil.....	22
SHe'riyat.....	22

## MEHRIBONLARIM

she'rlar

Muharrir: Vohid Ahmad  
Texnik muharrir: Rohila Yuldasheva  
Musahhih: Vohid Ahmad  
Dizayner: Bahodir Musayev

Bosishga ruxsat berildi: 19.12.2017 yil.

Bichimi 60x841/16, "Baltika TAD" garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Nashr tabog'i 0,6. Shartli bosma tabog'i 1.4

Adadi 100 nusxa. 24bet. Buyurtma №708. Erkin narxda. Shartnoma №22

"Qashqadaryo ko'zgusi OAV" MCHJ nashriyoti.

Nashriyot litsenziyasi AI №244.

180018. Qarshi shahri. Mustaqillik shohko'chasi , 22 uy.

Tel: +99875 227-50-05, 99895 680-50-50.

32000

"Photo Express" ishlab chiqarish korxonasida chop etildi.

Manzil: Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi , 22 uy.



**Asadova Sevara Dilshod qizi, 2003 yil 27 noyabrda Muborak tumanida tug'ilgan. Hozirgi vaqtda Muborak tumanidagi 29-umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi. She'rlari tuman, viloyat va respublika davriy nashrlarida muntazam chop etilib kelinmoqda.**

ISBN 978-9943-4751-2-0



9 789943 475120

